

BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI VA TARIXI

Qudratov Namoz

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610841>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligida Surxon vohasi beklilari etnik tarixi, aholining etnik tarkibi, ijtimoiy turmush tarzi, mashg‘ulotlari, urug‘-qavmlarning beklil hududlariga kirib ketishi, urf-odatlar va ayrim milliy an‘analari tarixi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Surxon vohasi etnik tarixi, Denov bekligi, aholisi, urug‘ va qavmlarning beklil hududiga kirib kelishi, aholi soni.

Surxon beklilari etnik tarixi nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, bu hududda yashagan aholining etnik tarkibi va ijtimoiy turmush tarzi haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday bo‘lsa-da, ularning etnik tarixiga oid ma‘lumotlarni XIX asr oxiri - XX asr boshlarida vohada bo‘lgan rossiyalik sayyohlarning asarlari va harbiy to‘plamlardagi ma‘lumotlarda hamda XX asrning o‘rtalarida yaratilgan asarlar, xususan. K. Najimov, B.X. Karmisheva, K. Shoniyozov va boshqalarning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Bulardan tashqari, voha aholisidan to‘plangan dala ma‘lumotlari ham bu sohaga oid tasavvurlarimizni boyitadi. To‘plangan ma‘lumotlar Surxon beklilarda yashagan aholi etnik tarkibi ancha murakkab bo‘lib, turli urug‘ va elat vakillaridan tarkib topganligini ko‘rsatadi. Vohaning o‘troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko‘chib kelgan urug‘ va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsa-da, o‘zining kelib chiqishi, urf-odatlar va ayrim milliy an‘analarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, viloyatning janubiy tekislik qismida aholining joylashuvi va etnik guruhdari uning shimoliga nisbatan farq qilgan. Jumladan, Denov, Sariosiyo, Uzun, Sho‘rchi beklilarda turli urug‘larning vakillari istiqomat qilgan. Bu hududlarda o‘zbek va tojiklar ko‘pchilikni tashkil etgan. O‘zbeklar Bobotog‘ning tog‘ oldi hududlari va Surxondaryoning yuqori qismida, tojiklar esa To‘palang, Sangardak. Obizarang, Xo‘jaipok, Qizilsuv, Qoratog‘ daryolarining o‘ng va chap qirg‘oqlarida yashashgan¹.

XIX asr oxirlaridagi statistik ma‘lumotlar Denov va Sarijo‘y beklilarda aholining joylashuvi, ularning xo‘jaliklar soni to‘grisida tasavvurimizni boyitadi. Bu ma‘lumotlarda Sariosiyo va Sarijo‘y amlokligida 1600 ga yaqin) o‘zbek oilasi hamda 1370 ta tojik oilasi istiqomat qilganligi ta‘kidlanadi. Denov bekligidagi amlokliklarda esa 2500 ta o‘zbek qamda 1440 ta tojik oilasi yashaganligi haqida ma‘lumot berilgan. Bu ma‘lumotlar to‘liq olinmagan bo‘lishi ham mumkin. Chunki o‘sha davrlarda aholi soni biror marotaba ham ro‘yxatga olinmagan.

Rossiyalik harbiylarning o‘zlari qishloqlarda bo‘lib, ma‘lumot to‘plashgan. Mahalliy hokimiyat vakillari amlokliklardagi mutasaddilariga bu haqida rasman murojaat etishmagan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Surxon vohasida 264863 kishi istiqomat qilib, shulardan 13110 kishi yoki 5 foizi shaharlarda, qolgan 251753 kishi, yani 95 foizi qishloqlarda yashagan. Eng katta shaharlar soni 6 ta bo‘lib, ularga Boysun, Termiz, Yurchi, Denov, Sarijuy, Sariosiyo shaharlari kirgan. Voha aholisining 74,5 foizini o‘zbeklar, 20,2 foizini tojiklar, 3,8 foizini turkmanlar, qolgan qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan. Sariosiyo aholisi 38085 kishidan

¹Хидояттов Г. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана – Т., 1965. – С. 124.

iborat bo'lib, ulardan 1527 kishi shaharda, qolgan qismi qishloqlarda yashagan. Aholi tarkibining 55,7 foizini o'zbeklar, 44,3 foizini tojiklar tashkil qilgan. Boysun tumanida 42856 kishi, shundan Boysun va Darband shaharlarida 3598 kishi yashab, jami aholining 8 foizini tashkil qilgan. Aholi milliy tarkibining 44,1 foizi o'zbeklar, 55,2 foizi esa tojiklar hissasiga to'g'ri kelgan. Denov tumanida 69932 kishi ro'yxatga olingan bo'lib, shundan Denov shahrida 3000, Yurchi shahrida esa 1101 kishi yashagan. Aholi milliy tarkibining 83,9 foizini o'zbeklar, 16,1 foizini tojiklar tashkil qilgan. Sherobod tumani aholisi 64471 kishidan iborat bo'lib, shundan 2500 tasi Sherobod shahrida yashagan, aholi milliy tarkibining 97,8 foizini o'zbeklar, 2,2 foizini arablar tashkil etgan. O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarini boshqa adabiyotlar bilan solishtirsak, ularda birmuncha tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, Sherobod tumanining tog'li hududlarida tojiklar ham yashagan, lekin bu aholi ro'yxati ma'lumotlarida qayd qilinmagan. B.X. Karmisheva va A. Qayumovlar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Sherobod tumani qishloqlarida yashovchi aholining 4,7 foizini tojiklar tashkil etgan. Jarqo'rg'on amlokligida 28859 kishi istiqomat qilgan. Aholi milliy tarkibining 97,8 foizini o'zbeklar, 2,1 foizini arablar, 0,1 foizini esa turkmanlar tashkil qilgan. Pattakesarda (Termiz shahri va uning atrofi) 20651 kishi, shu jumladan, Termiz shahrida 4284 kishi istiqomat qilgan. Aholi milliy tarkibining 41,1 foizi o'zbeklar, 51,2 foizi turkmanlar, 7,7 foizi boshqa millat vakillari (yaxudiyalar, afg'onlar va boshqalar) hisobiga to'g'ri kelgan².

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Buxoro amirligining yer maydonlari va aholisi to'g'risida olib borish bilan shug'ullanganlar. O'zbek chig'atoylaridan Sherobod vohasida 1627 kishi, Poshxurdda 1000 kishi, shuningdek, quyi Surxon va Amudaryo vodiysining Termiz tumanida 2160 kishi yashaganligi, Surxonning yuqori qismida tojik chig'atoylaridan 9490 kishi, o'rta qismida 3420 kishi yashaganligi ma'lumotlarda qayd qilingan. Vohada yashovchi chig'atoy urug'lari ikki guruhga – o'zbek va tojik chig'atoylariga bo'lingan. Sariosiyo va tumanlarining tog'li qismlarida yashovchi tojiklar ikki guruhga mansub bo'lib, birinchisiga azaldan yashab kelgan ko'histoniy (toqchi), ya'ni o'zlarini tub joy aholisi deb hisoblovchilar, ikkinchi guruhga esa turli joylardan kelgan viloyati yoki hisorilar kirgan. Birinchi guruhga mansub ko'histoniy tojiklari uncha katta bo'lmagan tog'li G'urut, Shotrud, Qarsh, Tamshush, Choch, Nilu, Zavar va boshqa qishloqlarda, ikkinchi guruhga mansub viloyati yoki hisorilar esa Xufar, Sina, Malau, Sariosiyo, Yurchi, Dehqalanlar va boshqa qishloqlarda yashaganlar. Bu hududlardan tashqari Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'rida tojik chig'atoylarining o'nga yaqin qishloqlari ro'yxatga olingan. Ulardan Sherjon, Vandob, Poshxurd va Chakoblar yirik chig'atoy qishloqlari sifatida qayd qilingan. Yuqoridagi birinchi ikkita qishloqda yashovchi tojik tilli chig'atoylar qatag'onlar bilan birga yashashgan. Poshxurddagi aralash aholining ko'p qismini tojik chig'atoylari tashkil etgan. Sherobod daryosi bo'yida joylashgan Darband, Sayrob va Panjob qishloqlari ham tojik tilli chig'atoylarning yirik qishloqlari hisoblanadi. Tojik chig'atoylaridan Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'rida 1755 kishi, Sherobod daryosi havzasida 3718 kishi, Boysun daryosi havzasida esa 4000 kishi, Surxondaryoning yuqori qismida 9490 kishi ro'yxatga olingan. 1889 yili Darbandda bo'lgan polkovnik Belyayevskiy u yerda yashagan urug'lar haqida muhim ma'lumotlar qoldirgan. U tog'li Darband hududida tojiklar, o'zbeklarning qo'ng'iro't urug'i vakillari ham ko'pchilikni tashkil qilishi, ulardan tashqari qovchin, laqay va boshqa urug'larning alohida qishloqlari bo'lganligini ta'kidlaydi. O'sha davrdagi ma'lumotlarga ko'ra, qo'ng'iro'tlar tojiklar bilan turmush qurmaganlar, ruslar bilan xohlamay munosabatda bo'lganlar, hukumat talablarini deyarli bajarmaganlar. O'zbek tilida so'zlashuvchi xo'jalar

²Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: Наука, 1976; Қаюмов Л. Шеробод воҳасининг этник таркиби (XIX-XX аср бошлари) // Узбекистонда ижтимоий фанлар. - 1998. №3. – Б.35.

vohaning ikki joyida qayd qilingan. Shulardan Poshxurdda 1110 kishi, Surxon daryosining Qumqo'rgon yaqinidagi sohillarida esa 220 kishi ro'yxatga olingan. Sherobod tumanida o'zbek xo'jalari Zarabog', Poshxurd, Qorabog' va boshqa qishloqlarda, Surxonning o'ng sohilida esa Jaloir, Toq-To'g'ay qishloqlarida, daryoning chap sohilidagi Xo'ja qishlog'ida, bundan tashqari, Termiz yaqinidagi Solixobodda, Boysunda Omonxona va Hamkonda, Denov shahri va uning atrofida, Sariosiyo va Dashnobod qishloqlarida ham istiqomat qilishgan. Qo'ng'irotlar Surxon vohasida yashovchi eng katta o'zbek urug'i hisoblangan. Ular XIX asr boshlarida G'uzor, Termiz va Bobotog' tizmasi yonbag'irlarigacha bo'lgan keng hududlarda yashagan. Ma'lumotlarga ko'ra, qo'ng'irotlar 31148 kishini tashkil etgan. Shundan Boysundaryo havzasida 3525, Sheroboddaryo havzasida 18385, Termiz atrofi va Amudaryo vodiysida 3525, Surxondaryo vodiysida 9375 kishi istiqomat qilgan. O'rta asrlarda Dashti Qipchoqdan kelib vohada yashagan o'zbek qabilalari vakillari orasida qo'ng'irotlar boshqa o'zbek urug'lariga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. Boysun, Termiz va Sheroboddan G'uzorgacha bo'lgan keng hududlar qo'ng'irotlar yurti hisoblangan. Qo'ng'irotlarning mazkur hududlarda gavjum tarqalishiga Shayboniylar davridagi «ulus tizimi» sabab bo'lgan, deyish mumkin. Qo'ng'irotlar ko'plab urug', oila va o'zaro qarindosh guruhlarga bo'lingan bo'lib, ularning urug'-qabilalari xususida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning har bir urug'i Sherobod vohasining muayyan hududlari bo'ylab joylashgan. Jumladan, Qo'ng'irotlarning Vaxtamg'ali shoxobchasi vakillari Sherobod daryosining o'rta oqimida, Ko'hitang tizmasidagi Gurjak, Turin, Jangariq va Xo'jaqiya qishloqlarida, qo'shtamg'alilar Sheroboddaryoning o'rta oqimidagi Chilonzor, Hamkon qishloqlarida, qonjig'alilar Sherobod va Jarqo'rgon hududlarida tarqalgan. Oyindilar Ko'hitang tog'ining sharqiy qismida joylashgan Qizil olma va Poshxurd qishloqlarida yashashgan. Tortuvlilar asosan Boysun bekligi hududlarida, ya'ni Sheroboddaryo bo'yidagi Xo'jabulg'on, Tillakamar, Daxanaijom qishloqlari va Boysun shahri hamda uning atrofidagi ba'zi qishloqlarda yashaganlar. Qo'ng'irotlar urug'lari Sherobod vohasidan tashqari Surxondaryo vohasi bo'ylab ham ko'p joylarda tarqalgan. Qoratog'daryo havzasida 13140 ta, Surxon vohasining yuqori va Bobotog' qismida 9375 ta qo'ng'irotlar vakillari borligi aniqlagan. Ular Sariosiyo va Denov tumanlariga bundan 170-180 yillar avval Dehqonoboddan kelishgan. Qo'ng'irotlar Surxon vohasining yuqori qismida, tog'li va boshqa qishloqlarida yashaganlar. Ma'lumotlarga ko'ra, yuzlar bundan 250-300 yillar oldin Samarqanddan Sho'rchiga kelib joylashganlar. Keyinroq esa ular Denov va Sariosiyo tumanlariga ham ko'chib kela boshlagan. Yuzlarning Oltinsoy va Sherobod tumanlarida ham yashaganliklari ma'lum. O'zbek yuzlaridan tashqari vohada turkman yuzlari ham bo'lib, ularning vohaga kelish tarixi haqida uch xil fikr mavjud: birinchi fikrga ko'ra, ular qo'ng'irotlar kabi shimoliy yurtlardan. ikkinchisiga ko'ra, ular bu yerga O'ratepa va Nurotadan ko'chib kelgan. uchinchisiga ko'ra esa Sulton Sanjar tomonidan 100 ta turkman ko'chirib keltirilgan va shuning uchun ular yuz (juz), ya'ni turkman-yuzi deb atalgan. Qatag'onlar Surxon vohasining yuqori qismlarida Denov, Oltinsoy, Sariosiyo hududlaridagi asosan Sangardak, Changloq, Bog'cha va boshqa tog'li qishloqlarda tojiklar bilan aralash yashashgan. Aholi ro'yxati hisobotlariga qaraganda, qatag'onlardan Ko'hitang tog'i sharqiy yonbag'irlarida 1190 kishi, Sherobod vohasining o'rta oqimida 2695 kishi, yuqori qismida 665 kishi, Surxonning o'ng qirg'og'ida 1055 kishi ro'yxatga olingan. I. Xidoyatov qatag'onlar bu tumanlarga asosan XVIII asrda Afg'onistondan kelib joylashgan, degan xulosaga kelgan. Toqchi qatag'onlari Ko'hitang tog'ining sharqiy qismidagi Xo'jaanko, Bedak, Xatak va Zarautsoy qishloqlarida hamda Zarabog'da tojiklar va o'zbek xo'jalari bilan, Sherjonda esa tojiklar bilan aralash yashaganlar. Sherobod daryosining o'rta oqimida joylashgan Xatak va Tanish qishloqlarida ham qatag'onlar uchraydi. Ular boymoqdiki, sherdiki, xidirdiki, ko'chakdiki kabi shoxchalarga bo'lingan. Shuningdek, ular Sherobod daryosining yuqori

oqimida joylashgan Kengdala, Qizilnur, Ko'mirchi va Ko'ksoy kabi qishloqlarda istiqomat qilishgan. Boysun shahri va uning atrofidagi qishloqlarda toqchi qatag'onlarining kam sonli guruhini uchratish mumkin. Hozirgi paytda ular Sherobod, Angor va Muzrobod tumanlaridagi ko'pgina qishloqlarda chig'atoy urug'i vakillari bilan birgalikda yashab kelmoqdalar. Vohadagi o'zbek qavmlaridan biri turklar o'z o'rnida uchta urug'ga, ya'ni qarluq turklari, barlos turklari va kaltatoyi turklariga bo'lingan. Turklarning ko'p sonli guruhini Boysun bekligi va Sherobod vohasining turli joylarida uchratish mumkin. O'zbekistonning janubiy tumanlarida turklarning soni 23212 kishini tashkil qilgan. Shulardan Surxonning yuqori oqimida 3641 kishi, Qoratog' daryosi xavzasida 12003 kishi ro'yxatga olingan. Turklar Boysun shahri va uning atrofidagi Saroytosh hamda Turk qishloqlarida, ulardan tashqari Inqobod, Omonxona va Machay daryo havzasidagi Yuqori Machay qishlog'ida ham istiqomat qilishgan. Tadqiqotlarda Sherobod vohasining Sherobod shahri yaqinidagi Gegirdak va Navubog' qishloqlarida o'zbek tilli chig'atoylar hamda afg'onlar aralash yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Хидоятлов Г. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана – Т., 1965. – С. 124.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: Наука, 1976; Қаяумов Л. Шеробод воҳасининг этник таркиби (XIX-XX аср бошлари) // Узбекистонда ижтимоий фанлар. - 1998. №3. – Б.35.
3. Tursunov S. Surxondaryo tarix ko'zgasida. Toshkent, Sharq. -2001. B.112.
4. Ochiliev F. Surxon vohasi beklilaridagi ijtimoiy-siyosiy va idtisodiy uzgarishlar (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari). - T:
5. Tojimurodovich, Q. N. (2023). Administrative Structure and Management System of the Becks in Surkhan Oasis. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(10), 87-92.
6. Tojimurodovich, Q. N. (2022). BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI BEKLIKLANI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(9), 36-39.
7. NAMOZ, Q. (2022). THE HISTORY OF MADRASAH SAID OTALIQ. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 10-13.
8. Tangrikulov, J. E. (2021). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1451-1455.
9. Tangrikulov, J. E., & Rakhmatov, E. T. (2020). Cotton work. Work of Uzbek people" fiction: causes, consequences, results. ISJ Theoretical & Applied Science, 7(87), 70-73.
10. Tangrikulov, J. E. (2021). " Red terror" in uzbekistan in the 80s of the 20th century: Causes, results, consequences.